

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JAMOASIDA O‘ZARO DO‘STLIK MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Maxkamova Husnida Ro‘ziboyevna¹

¹ Turan xalqaro universiteti o‘qituvchisi

mahkamovahusnida05@gmail.com

MAQOLA MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 27.10.2024

Revised: 28.10.2024

Accepted: 29.10.2024

KALIT SO‘ZLAR:

maktabgacha yosh,
bolalar, do‘stlik, jamoa,
munosbatlar, muhit,
mas‘uliyat,
insonparvarlik,
pedagog, muloqot,
innovatsiya, malaka.

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar jamoasini uyushtirish yo‘llari, bolalar jamoasida o‘zaro do‘stlik munosabatlarini shakllantirish omillari, ularni barkamol yetuk shaxs bo‘lib rivojlanishidagi ahamiyati, jamoatchilik bilan hamkorlik haqidagi ma‘lumotlar xususida so‘z yuritiladi.

KIRISH. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e‘tibor qaratilib, bolalar va ularning tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorida maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Ustuvor yo‘nalishda maktabgacha ta‘limda rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, bolaning kelgusida o‘zini muvaffaqiyatli namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida olib borilishi zarur bo‘lgan ta‘lim-tarbiya jarayoni bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashga integrativ yondashish eng maqbul yo‘llardan biri bo‘lishi mumkinligiga asos bo‘ladi.

Bu borada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vazifalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartida maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmunning tarkibiy qismlariga integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillari asosida yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni muxitga moslashuvchanligida atrofdagi do'stlarining yordami zarur. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoniga qiynalmay moslashishi, tartib hamda intizomga rioya qilish, yangi muhitga ko'nikishi, u uchun yangi qoidalarga bo'ysunishi va berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishida unga do'sti ko'maklashadi. Bola har doim ota-onasi yoki boshqa bir inson tomonidan ruhiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji bor. Bolani fikrlari bilan kimdir qiziqishi, uni tinglashi, birga sevimli o'yinini o'ynashi o'zini qabul qilingan xis qiladi va guruhda erkin bo'ladi, o'ziga bo'lgan ishonchi kuchayadi. Bolalarda do'stlik ularga dunyoni kashf etish, o'rganish va o'sish jarayonida katta yordam beradi. Bolalar orasidagi do'stlik nafaqat o'yin-kulgu, balki muhim axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning asosi hamdir. Shu bilan birga jamoa bo'lish tuyg'usini xam rivojlantiradi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'zbek xalqiga xos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, axloqiy sifat va fazilatlarni bola-yoshlarda tarbiyalash bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridandir.

O'zbekiston buyuk kelajagini yaratish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishida evolyutsion rivojlanish yo'lini tanlangan. O'zbek xalqiga xos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, axloqiy sifat va fazilatlarni bola-yoshlarda tarbiyalash bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridandir.

Xalqimizning haqiqiy ma'naviy boyliklari bo'lmish imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka izzat, do'stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarni asrab-avaylashni farzandlarimizning qon-qoniga singdiraylik, jamiyatimizning kundalik hayotida doimo ustuvor qilaylik degan yurtboshimizning fikriga qo'shilgan holda bugungi kun ta'lim jarayonida yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor bilan yondashmoq kerak. Bunda ayniqsa, maktabgacha ta'limining o'rni katta desak, mubolaga qilmagan bo'lamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zaro do'stlik munosabatlarini tarbiyalash – maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasidir. U atrofdagi o'rtoqlariga, faqat o'zing uchun emas, boshqalar uchun ham muhim bo'lgan faoliyatga nisbatan xudbinlik, beparvo munosabatning namon bo'lishiga ziddir.

Ibn Sino o'z asarlarida insonlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlikka alohida ahamiyat berib, odamlarni bir-birlari bilan do'st inoq bo'lib yashashga, pastkashlikka olib keladigan adovatni yo'qotishga chaqiradi

Hayotda o'z do'stiga mehribon bo'lish, qo'lidan keladigan yordamlarni ayamaslik, do'stidan nuqson va kamchiliklaridan yuz o'girmaslik, aksincha uni yo'qotishga harakat qilish kabilar Ibn Sinoning asarlarida keng o'rin olgan.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra kishi do'st tutinishining uch xil yo'li bor:

- har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishini.
- g'oyaviy yaqinlik va dunyo qarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlik.
- kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi, deb takidlaydi.

Ibn Sino chin do'stni ko'zguga taqqoslaydi. Chunki ko'zgu kishining haqiqiy borlig'ini ko'rsatadi. Kishi do'stidagi nuqsonlarni o'z vaqtida ochib tashlamasa, ro'y-rost gapirmasa, u o'z do'stlik burchini unutgan bo'ladi. Shunday ekan biz bolalarni haqiqiy do'st tanlashga, ularni asrab-avaylashga, biron nojo'ya ish qilganda kamchiliklarini o'z vaqtida ochib tashlashga o'rgatishimiz lozim.

Olim bola xulqiga tavsif berib, quyidagilarni ta'kidlaydi: - "...mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor;

Birinchi: Bolaning ruhi uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu ajralmas malaka bo'lib qoladi.

Ikkinchi: Bolaning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan: g'azab kuchli qizdiradi, qayg'u kuchli quritadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uyushqoqlik, mas'uliyat asoslari, burch, adolat hissi, mehribonlik, insonparvarlik kurtaklari tarbiyalangan bo'lsa, do'stlik munosabatlari birinchi sinfdanoq ularning xush ko'rishlik, ijobiy, do'stona munosabatlarini rivojlantirishga asoslanadi, bu bolalarning xayrixohlik munosabatlari uchun nihoyatda muhimdir.

Birgalikdagi rang-barang o'quv faoliyati har bir bolada o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish va uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro do'stlik munosabatlarining yuzaga kelishida sifat jihatidan siljish kuzatiladi. Bu tarbiyachining bolalarga yuqori talablar qo'yishiga: mashg'ulot paytida, topshiriqlarni bajarishda o'rtoqlari bilan aloqa bog'lash, tengdoshlari bilan birgalikda umumiy faoliyat uchun sharoit yaratish, boshqalarning qiziqishlari, istaklari bilan hisoblashish, yordam ko'rsatishga imkon beradi.

Pedagog bolalarni yakka tartibdagi va birgalikdagi faoliyatga jalb etar ekan, ularni yaxshi ishlarga mashq qildiradi, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, atrofdagilarga (tarbiyachiga, o'rtoqlariga) quloq solish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish istagini uyg'otadi.

Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisi bolalarda o'rtoqlari bilan salomlashish, minnatdorchilik bildirish, ulardan xushmuomalalik bilan iltimos qilish, boshqa bolalar yonida ularga halaqit bermay o'qish, yozish, topshiriqlarni bajarish, o'rtoqlarini kerakli vaziyatlarda tinchgina kutish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

Mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda bolalardan bir-birlari bilan xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lish, o'rtoqlariga qo'lidan keladigan xizmatlar ko'rsatish, tengdoshlari bilan birgalikda turli o'yinlar o'ynash, yon bosish malakalarini mustahkamlaydi.

Pedagog asta-sekin bolalarda o'rtoqlariga nisbatan maylni, yaxshi mehribon bo'lishiga intilishini tarbiyalashni davom ettiradi, bolaga o'zining yomon odatlaridan uyalish kerakligini uqtiradi.

Katta va tayyorlov guruhlariga o'tgach maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlari bilan birgalikdagi o'quv faoliyatiga, o'yinlarga, ular bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj aniq ifodalangan bo'ladi. Bu ijtimoiy ehtiyoj oz'aro do'stlik munosabatlarini rivojlantirishning zamini hisoblanadiki, bu ham muhim tarbiyaviy vazifadir.

Bolalarga nisbatan bu vazifa tengdoshlari bilan muloqotda, yaxshi natijalarga erishganda quvonch hissini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga tarbiyachi bolalarni o'zaro munosabat qoidalarini buzilishini (itarib yuborish, narsasini berkitishi, olib qo'yish) payqashga ham o'rgatib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'ziga yaqin do'stlari bilan muloqotda bo'lishga intilish ayniqsa kuchli bo'ladi. Bolalarning rivojlanganlik darajasi, tengdoshlarining harakat va nutqini tushunish, ular bilan samimiy gaplashish, birgalikdagi o'yin, mashg'ulot haqida kelishib olish imkonini beradi.

O'rtoqlari orasida bola o'z istagini boshqa bola va butun bolalar guruhi bilan muvofiqlashtirishga o'rganadi. Tarbiyachi zimmasiga bolalarda o'rtoqlariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, tarbiyachining iltimosiga ko'ra yangi kelgan, kasal bo'lgan o'rtoqlari haqida g'amxo'rlik qilish, o'zi bilgan narsani boshqalarga o'rgatish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini yuklaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, do'stlik - axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhim ko'rinishlaridan biridir. U insonning yuksak ijtimoiy munosabatini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr-qimmat, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch beradi.

Maktabgacha yosh – shaxsning dastlabki kamol topish davridir. Yetti yoshga borib bola axloqiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichi sifatida uning shaxsi yo'nalishi yetarli darajada aniq ko'zga tashlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi insonparvarlik asoslarini tarbiyalar ekan, bolalarda kattalarga hurmat, quloq solish istagi va ko'nikmalari, ularning maslahatlari, ko'rsatmalari va topshiriqlarini bajarishga tayrlikni rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari; tengdoshlari bilan do'stona o'zaro munosabatlar, ularga g'amxo'rona munosabatda bo'lish tuyg'usini shakllantirishlari kerak.

Bolalarning o'z vazifalarini esda tutish va ularni ishtiqlik bilan bajarishga; o'rtoqlari bilan o'z bilimlari, rejalari, o'quv qurollari va qo'llanmalarini bo'lishishga o'rgatish darkor.

Maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda birga qayg'urish, o'rtoqlarining quvonch va shodliklariga sherik bo'lish, qiynalgan vaqtlarda o'zaro yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir. Adabiy qahramonlar xulq-atvorini, o'zining xulq-atvori va tengdoshlarining xulq-atvorini to'g'ri baholashga o'rgatish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni. 2019 yil 16 dekabr

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PQ-4312–son qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son qarori

4. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 802-son qarori.

5. Abdusamatova N. Integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish.: Ped. fanl. b. falsafa doktori (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2021. – B.23-25.

6. To‘ychiyeva. T. O‘zbek ma’naviy qadriyatlari tizimida urf- odat va an‘analarining o‘rni. PFN ilm. dar. olish uchun yozil. diss. -T.: Nizomiy nomidagi, -T., TDPU, 2000.

